Aleksandrning farazi to'g'ri chiqdi. Bugungacha bo'ri qishloq aholisining birnechtasini tishlagan ekan. Quturgan hayvon tishlaridan jabrlangan bemor Novikov va olti nafar kishiga antibarik vaksina bilan gamma – globulin aralashmasini qo'llay boshladilar. Davolash natijasida Novikov va boshqa jabrlanganlarning salomatligi yaxshilanib ketdi.

Buyuk farang olimi Lui Paster quturishga qarshi vaksinani kashf etgandan so'ng quturgan hayvonlar tishlagan minglab odamlar muqarar o'limdan saqlab qolindi. Biroq, shunga qaramay kuzatishlar soni ko'paya borgan sari vaksina bu daxshatli kasallikdan har doim ham himoya qilavermasligiga vrachlar ishonch hosil qildi.

Kasallik qo'zg'atuvchi – quturish virusi odam miyasini zararlantiradi. Bu kasallik yuqib, rivojlanishi uchun virus tishlangan joydan miyaga borishi kerak. Agar quturgan hayvon odam oyog'ini tishlasha, virusning miyagacha borish yo'li uzoqroq va quturgan hayvon odam yuzi, boshidan tishlasa, virusning miyagacha borish yo'li yaqinroqdir.

Agar yuzidan tishlangan odamga emlash boshlansa, u baribir quturishi mumkin, chunki yuzidan tishlanganida kasallikning yashirin davri 7 – 8 kunni tashkil etadi. Vaholanki, antitelolar emlangan kundan boshlab, o'n kundan so'ng qonda paydo bo'ladi. Demak odamni saqlab qolish uchun quturishga qarshi tayyor antitelo quyish kerak. Shunday dori yaratish kerakki, mazkur dori hatto virusodam miyasiga tushgan taqdirda ham uni quturishdandavolasin...

1955 yilda professor M.A. Selimov rahbarligi ostida huddi ana shunday dori yaratishga kirishildi.

Otlar organizmiga chala o'ldirilgan quturish virusi yuborilib, ulrda quturishga qarshi antitelo hosil qilindi va ularning qonidan zardob olindi. Shundan so'ng ishning eng nozik tomoniga qo'l urdilar:zardobdan tajribada ko'pm miqdorda antitelo mavjud bo'lgan fraksiya ajratib olish zarur edi. Oqsilni cho'ktirishning har xil usullariniqo'llab ko'rishdi. Sentrafugalshning turlixillaridan va past haroratdan hamma – hammasidan foydalanib ko'rishdi va nihoyat, antibarik gamma – globulin olishdi.

Professor Salimov mazkur gamma – globulinni haddan tashqari quturgan hayvonlar organizmiga yuborib, uning yuksak samara berishiga ishonch hosil qiladi. Shundan so'ng quturgan hayvonlar tishlagan har bir odam orqasida turgan o'lim soyasi chekindi. Antibarik vaksina bilan birga antibarik gamma – globulinning jabrlanuvchilar organizmiga o'z vaqtida yuborilishi, ularning qiynoqli muqarar o'limdan saqlanib qolishiga omil bo'ldi. Hatto quturgan hayvonbosh miya chanog'idan tishlagan odamlar ham sog'ayib ketdilar. 70 yillarga kelib vrachlar juda ko'p yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish yo'llarini bilib oldilar.

Qachonlardir odamlarga daxshat solgan qorachechak yo'qotildi, rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda poliometit va difteriya (bo'g'ma)deyarli uchramaydi:boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurash vositalari topildi.

Mana shular natijasida yuqumli kasalliklar bilan bemalol «baxslasha oladigan» gepatit oldingi o'rinlardan biriga chiqib qoldi. Bu og'ir kasallik bo'lib, odam bu dardga chalinganida ko'plab icki a'zolari, xususan jigarishikastlanadi. Ba'zan yuqumli gepatit kuchayib, jigari serrozga aylanadi natijada bemor nogiron bo'lib qoladi. Kasallik belgilaridan biri – teri sariqligidir. Ma'lum bo'ldiki, kasallikni keltirib chiqaruvchi omil – virus bo'lib, uni samarali davolash vositasi hozirda yo'q. Keyingi yillarda olimlarning aniqlashlaricha, gepatit kasalligini bir emas , balki bir necha virus keltirib chiqarar ekan. Ulardan biri – B virusi mazkur kasallik bilan og'rigan bemorlar foydalangan shprints yoki ignada emlash muolaja qilish davrida , shuningdek ular foydalangan sistemada qon quyish paytida yuqarkan.

70 – yillarning boshlarida taniqli Amerika pediatri Saul Krugman yuqumli gepatit kasalligining oldini oladigan dori itopishga bel bog'ladi. Krugman gepatitga qarshi samarali dori ishlab chiqishning eng yaxshi yo'li o'ziga xos gamma – globulin ishlab chiqishda ekanligini yaxshi tushunar edi.

Kasallikni turli viruslar keltirib chiqarar ekan, demak, gamma – globulin ham bir necha turda bo'lishi kerak. Tadbir joiz bo'lsa, zardob gepatiti keltirib chiqaruvchi B – virusiga qarshi gamma – globulin yaratish nihoyatda mushkul bo'ldi. Katta va mashaqqatli ish ko'ndalang bo'lib turar edi. Gepatitning shu turi

bilan og'rikan bemorlar qonidagi antitelolar bor – yo'qligi aniqlanib, antitelolar yetarli miqdorda bo'lsa, ularning qonidan plazma olinadi. Plazmadan gama – globulin tayyorladilar. Keyin masalaning qiyin tomoni – olingan dorini hayvonlarda sinab ko'rish qoldi. Buning uchun gepatit bilan huddi odamlardek og'riydigan maymunlarni shu kasallik bilan kasallantirib, ular organizmiga gama – globulin yubordilar va ularni kuzatdilar.

Mashaqqatli mehnatdan so'ng, 1974 yilda gama – globulinning birinchi ampulalari tayyor bo'ldi. To'g'ri, dorini sinab ko'rish qiyinchiliklari hozircha uning keng tarqalishiga halal bermoqda. Biroq olimlar ushbu dorini sinab ko'rishning yanada soddaroq usullari ustida ish olib bormoqdalar, mazkur izlanishlar bu dorini klinika sharoitida keng qo'llanilishini ta'minlaydi.

Qon fabrikasi.

Qon tayyorlash «oshxona»siga Arinkin qanday nazar tashladi?

Ilikda o'zgarishlar sodir bo'lsayu, kasallikdan darak bermasa, betoblikning birinchi bosqichlarida qanday qilib tashxiz qo'yish kerak? Axir, kasallik jarayoni avj olmasdan turib falokatning oldini olish oson – ku ! Qanday qilib shaffof bo'lmagan suyaklarortidagi ilikka termulib, u yerda nimalar sodir bo'layotganini bilish mumkin?

Asrimizning 20 – yillaridan boshlab vrachlar rentgen yoritgichlari yordamida odam a'zolarining ichki tuzulishini o'rgana boshladilar, biroq, tirik odam iligini o'rganish sirligicha qolaverdi. Biroq bu jabhada ishlar to'xtamadi. Ilik kasalligiga tashxiz qo'yish usulini harbiy – tabobat akademiyasining professori olim Mixail Innakentivich Arinkin ham izladi.

Yoshlik yillaridanoq gematologiya bilan qiziqqan Arinkin o'sha paytlarda faqat murdalarda tekshirib ko'rish mumkin bo'lgan ilik tuzulishini chuqur o'rganishga astoydil bel bog'ladi. Anatomiya xonasida uzoq vaqtlarini o'tkazarkan, Arinkin tirik odamning suyagiga yirik igna tiqib, iligidan olish mumkinmikin, degandegan fikirlarga keladi. Qiynoqli muloxazalardan so'ng u odam ko'krigidagito'sh suyagi iligini tadqiqot qilish maqsadga muvofiqroq degan xulosaga keladi. Odamning ko'krak qafasi oldida joylashgan bu suyak

qovurg'alarni birlashtirib turadi. Natijada kishi tanasining muhim a'zolaridan – o'pkasi va yuragini shikastlanishdan saqlovchi «ko'krak qafasi» hosil bo'ladi. Ko'krak – tosh suyagi tog'ay birlashtirib turgan alohida tarmoqlardan iborat bo'ladi. Ko'krak – to'sh suyagi ilik to'qimalariga boy bo'ladi.

To'sh suyagining boshqa a'zolari bilan o'zaro aloqasini o'rganish, uning qalinligini o'lchash, unga belgilar qo'yib chiqish ishlari orta qoldi. Nihoyat, oldindan ko'zlangan ishlar qilindi. Endi ko'krak suyagiga igna sanchib, ilik olsa bo'ladimi - yo'qmi ekanligini tekshirib ko'rish qolgan edi holos. Birinchi tadqiqotni o'likda qilib ko'rishga qaror qilishdi. Huddi shu paytda bir bemor og'ir qon kasali – applastik kamqonlikdan o'lgan edi. Klinikaning katta assistenti M.I.Baranchik o'lgan ayol tosh suyagi old devoriga igna suqdidagi, bir necha tomchi qonli suyuq massani so'rdirdi va uni mikrosko'p oynasiga tomizdi. Bu voqea ishtirokchisi doktor, so'ngra professor Novodvorskiy keyinchalik shunday yozadi:

« Sabrsizligimizning cheki yo'q edi. Biz olingan massadan bir necha oynachalarga surtdik va ulardan birini tezda bo'yadik. Boshliqlik huquqiga ko'ra M.I.Baranchik massa namunasini mikroskop ostiga qo'yib ko'ra boshladi. Mutlaqo jimlik hukmron edi. Hamma yo hafsalasini pir qiladigan yoki quvontiradigan birinchi so'zlarni kutar edi... Birdaniga u Bu shubhasiz ilik» deb yubordi.

O'zlari bilan birga mikroskop va ilikni olishib, Novodvorskiy bilan Baranchik professor Arinkinining uyiga borishdi va bu yerda haqiqatdan ham ilik olganliklari to'g'risida qat'iy xulosaga kelishdi. Shundan so'ng asosiy bosqich – tirik odamda punksiya (dori qo'yish yoki qon, suyuqlik olish uchun shpripsignasi bilan badanni teshish) o'tkazish masalasi ko'ndalang bo'ldi. Biroq bu ishga hech kim jur'at eta olmadi deb yozadi Novodvorskiy.

O'sha harbiy tibbiy akademiyasining hirurgik klinikasi assistenti Mixail Semenovich Lisitsin qat'iyatli va jasur chiqib qoldi. U qon tizimi kasallangan bemorlardan birining to'sh suyagida birinchi marta punktsiya muolajasini o'tkazdi.

Professor Arinkin M.S.Lisitsin tavsiya etgan usul haqida Butun terapeftlar Qurultoyida axborot berdi. Biroq, ma'ruza ishonchsizlik bilan kutib olindi. Mashxur gematolog, professor Goryayev bunaqa oddiy usul bilan ilik olinishiga

sira ishonmadi. Uning ishtirokida klinikada bemor to'sh suyagida punktsiya qilinib, olingan suyuqlik na'munasi mikroskopda tekshirib ko'rgachgina Goryayev « Ha bu haqiqatdan ham ilik. Bunga o'xshashini men hech qachon periferik qon tarkibida ko'rmaganman. Buni olish esa ko'rinib turibdiki juda oson ekan – deb aytadi. 1928 yilda professor Arinkin « qon ishlab chiquvchi a'zolar kasalliklari» qo'llanmasi bosmasida chiqdi. Mazkur qo'llanmada u to'sh suyagini 103 marta punktsiya qilgandagi tafsilotlarini bayon etadi.

Ixtiro qilindi. Biroq, uning keng klinik amaliyotiga tadbqiq etishga juda ham muhim bir vaziyat to'sqinlik qilar edi. To'sh suyagi ortida bevosita yurak bor- ku? Igna qattiqroq ezib yuborildimi – xotimasi fojia. Hatto operatorning bexato ishlaydigan roboti ham yuz foiz kafolatlari bo'lmaydi. Shuning uchun ham xavfsiz igna ixtiro qilish kerak. Extiyot – qalqonchali bunday igna 30- yillar boshlarida professor I.A.Kassirskiy tomonidan loyihalashtirilgan. Loyihasining soddaligi va ishonchliligi bilan bu igna tezda hammaning ishonchioni qozomndi. Chunki ignaning uzun – qisqaligi bemorning teri osti yog' qatlamining qalinligiga qarab o'zgartiriladi. M.I. Arinkin tavsiya etgan usul bilan qon kasalligiga tashxis qo'yishda mazkur ignadan 60 yil mobaynida keng foydalanilmoqda [18,25].

Hali hech kim ko'rmagan hujayralar.

Shunday qilib, qon ishlab chiqish qo'shimcha nazariyasi tantana qildi. Ammo unchalik ko'p vaqt o'tmasdan yangi voqeyalar pishib yetila boshladi.

1961 yilda kamtargina Nyu – York oynomasi - «Radiatsiyada « kanadalik ikki olim I Til va E.Makkalaxning ma'qolasi chiqib, mazkur ma'qola portlagan bo'mba taasuotini qoldirdi.

Toronto dorilfununi to'qimalarini o'stirish labaratoriyasining mudiri professor Makkalax va uning hodimi Til bir xil toifadagi sichqonchalarda nur kasalligi modeli ustida ish olib borar edilar. Bu turdagi sichqonchalarning odatdagi sichqonchalardan farqi shundaki bir xil toifadagi (bunday sichqonlarni ko'plab uchratish mumkin) sichqonlar aslida egizaklardir: ular to'qimalarning antigen tuzulishi mutlaqo bir xil. Ko'chirib o'tkazish imkoniyatlarini o'rganayotgan tadqiqotchilar ko'pincha bir xil toifadagi sichqonlar bilan ish olib boradilar.

Chunki bir sichqondan boshqasiga o'tkazilgan to'qima bir – birini inkor etmay, balki qo'shilibketadi.

Olimlarning amalga oshirgan tajriba quyidagi lardan iborat. Ular sichqonlarni katta dozadagin rentgen nuri bilan nurlantiradilar va ularning dum venasiga shu toifadagi sichqonlar iligini yuboradilar. Tadqiqotchilar nurlanish dozaasi va venaga yuborilgan hujayralar soniga qarab ilik transplatatsiya qilganidan so'ng yashab ketgan jonivorlar nechtaligini aniqladilar.

1960 yilda avgust kunlaridan birida Makkalax Tilni juda ham mayda buyum ustida egilib turganini ko'rib qoladi. Professorni ko'rgan Til tushuntirdi: nurlanishdan sichqon o'libdi va sichqon jigarning ustki qismini yorganida qandaydir mayda narsalar paydo bo'libdi.

Makkalax jajjigina a'zoni extiyotlik bilan pinsetda olib, uni lupada diqqat bilan kuzatdi. Darhaqiqat, taloqda tushunib bo'lmaydigan tugunchalar mavjud ekan. Bu narsalar faqat venasiga ilik yuborilgan sichqonlarda bor ekan xolos, - tushuntirdi Til. Nazoratdagi jonivorlarda bunaqangi tugunchalar yo'q.

Gistologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yaloqdagi har bir tugunchak – venaga yuborilgan ilik hujayralari edi. Olimlar bunday tugunchakni «koloniya» deb atadilar.

Ular qayerdan kelib qoldilar? Javob bitta edi: ilik hujayralari venaga yuborilganidan keyin taloqqa tushdi va bu yerda har bir hujayra koloniyaga aylandi.

«Ko'chib kelgan joy»da urchib, koloniya hosil qilgan har bir hujayra venaga yuborilgan ilik hujayralaridan iborat ekanligi tadqiqotchilarga ma'lum edi. Buni koloniyalar tarkibi ham tasdiqladi: ularning har biri bir turdagi qon ishlab chiqaruvchi hujayralardan iborat edi. Keyinchalik taloqda urchishga asos soluvchi hujayralarni o'zakli deb atasha boshladilar. O'zakli hujayralardan gematologik «daraxt»rivojlanadi.

Biroq bu o'zak hujayralarni mikroskopda ko'rish nasib etmadi. Balki, ular butunlay yo'qdir. Ko'pgina tadqiqotchilar, bunday emas, deb xulosa chiqardilar.

Taloqda koloniya hosil bo'lishidek kamdan – kam uchraydigan hodisa suqlanadigan darajada muntazam uchrab turadi. Demak, A.N.Kryukov va boshqa gematologlar taloqda urchishga asos soluvchi, deb xisoblangan o'sha hujayra o'sha hujayra emas ekan. Endi bun aaniq isbotlangan

Iqtidorli olim va ajoyib tadqiqotchi, gemotologiya va qon quyish Markaziy institutining qon ishlab chiquvchi to'qimalar laboratoriyasining mudiri, professor Iosif Lvovich Chertkov kanadalik olimlarning kashfiyoti bilan qiziqib qoldi.

Chertkov Til va Makkalx tajribalarini takrorladi, biroq u boshqa bir mashhur gematolog Andrey Ivanovich Vorobyov bilan yangi qon ishlab chiqish chizmasini ilgari surarkan. Til va Makkalaxdan o'zib ketdi. Mazkur chizma hammaning ishonchini qozondi: barcha qon ishlab chiqish daraxti asosida qizil, oq va boshqa qatorlarning o'tmishdoshi keyinchalik hujayralarga aylangan o'zak hujayra edi.

Moskvada olimlar o'tmishdosh – hujayralar bo'yicha bir necha anjumanlar o'tkazdilar va hozir Chertkov hamda Vorobyov chizmasining tasdiqlovchi yangi – yangi dalillar aniqlanmoqda[18].

Bugungi qon haqidagi fan, ilikni ko'chirib o'tkazish.

Belgrad yaqinidagi Vinche degan manzilgohda joylashgan Boris Kidrich nomidagi yadro muammolari institutining 1958 yil 15 noyabr kuni odatdagidek boshalanadi. Ilmiy hodimlarning ba'zilar o'z laboratoriyalarining ish stollariga o'tirib olib, bir kun avvalgi tadqiqotlar yozuvini ko'rar va bugungi tajribalar rejasini muhokama qilar edilar. Boshqa birovlar kutubxonadagi yangi kelgan oynomalar bilan tanishar edi. Uchinchi bir toifadagi ilmiy hodimlar apparatlarini tajriba uchun tayyorlash bilan mashg'ul edilar. Atom reaktori joylashgan kattakon saroyda olti kishi – besh erkak ba bir ayol tajriba o'tkazishga kirishdilar. Ulardan to'rt nafar fizik- talabalar bo'lib, ikki nafari – apparatlarni tayyorlab beruvchi texnik hodimlarni tashkil etardi. Deyarli 7 metr balandlikda po'lat fermalarda (alohida usul bilan yotkizilgan va uchlari birga qo'shib qurilgan ustun) ichida to'rt tonnaga yaqin tabiiy uran solingan kattakon alyuminiy kanteyner bo'lib, u og'ir suvga botirilgan edi. Shu kuni uranning o'z – o'zidan parchalanishi tajribasini takrorlashga qaror qilingan edi.

Ikkinchi tadqiqotchi reaktor boshqaruvi pulti yonida bo'lib, qolganlari esa elektron apparatlar yonida hoziru – nozir edilar. Tajriba paytida talabalardan biri qandaydir asbob uchun tashqariga chiqadi. Kutilmaganda bino ichi ozon hidiga to'lib ketadi va tadqiqitchilar nimadir sodir bo'lganini fahmlashadi. Ular cho'ntak dozimetrlarini tekshirib ko'rishganida ularning ko'rsatkichlari qizil chiziqni ham ortda qoldirib, eng so'nggi nuqtasiga qadalib qoladi.

Pult yonida o'tirgan Rozanda Dangubich o'sha ondayoq reaktorni o'chiradi...

Tabiat insonni yaratayotganida radiaktiv nurlanishni payqab olish hususiyatini hisobga olmagan ekan. Shuning uchun ham fojiali radiaktiv hurlanganida ham inson o'zini odatdagidek his qilaveradi. Faqat bir necha soatdan keyingina kasallikning birinchi belgilari – ko'ngil aynishi, qusish va darmonsizlik boshlanadi.

Tajriba ishtirokchilarining har birida qattiq ko'ngil aynishi va to'xtatib bo'lamyigan qayt qilish kuzatilgan. Nurlanishning boshlang'ich davrida ularning ahvoli yaxshi bo'lib, biroq uchunchi haftaga o'tgach, bemorlarning salomatligi keskin yomonlashgan. Ularning nur kasalligi tashhisi bilan mashxur gematolog professor Matening Parijdagi klinikasiga davolashga yubordilar. Bu yerda bemorlarga qon, ma'lum miqdorda eritrotsit, leykotsit va trombosit quyadilar. Biroq ularning ahvoli og'irligicha qolaverdi. Ayniqsa, yigirma to'rt yoshli talaba Jivota Vranich o'zini juda yomon his qiladi. Vrachalar bemorlarga ilik ko'chirib o'tkazishga qaror qildilar.

Mazkur operatsiya birinchi bo'lib Vranich ustida o'tkaziladi. Avvaliga unga tug'ilganidan bir necha soat keyinroq o'lgan besh oylik homilaning jigari va talog'idanolinga hujayralar ko'chirib o'tkaziladi. Biroq, bemorning ahvoli yaxshilanmaydi. Nurlanishning 27 kunidan keyin Vranich yana operatsiya stoliga yotqiziladi. Uning yoniga esa donor sifatida farang ishchisi Raymon Kastate yotadi.

Bir necha daqiqadan so'ng donorga narkoz berishib, maxsus ignalar yordamida uning to'sh suyagi va boshqa suyaklaridan teshiikchalr ochishadi. keyin spirits bilan bir necha ml qon aralash ilik shimdirib olishib, shu ondayoq mazkur

ilikni Vranichning vena tomiriga yuborishadi. Bemor donordan 200 ml ga yaqin ilik qabul qildi.

Kelgusi kunlarida yana to'rt bemorga ilik ko'chirib o'tkazdilar. Falokat jarayonida asbob uchun reaktor xonasidan chiqib ketgan, ozroq nurlangan bemorga ilik ko'chirib o'tkazmay qo'yaqolamiz, degan qarorga kelishadi. Vrachlarning barcha sayi harakatlariga qaramasdan Jivota Vranich halok bo'ladi. Qolgan jabrlanuvchilar sog'ayib ketadilar. Ular organizmida «shahsiy ilik» vazifasini «zimmasiga olgan» ko'chirib o'tkazilgan ilikning vaqtincha yashab ketish jarayoni boshalnadi. Kuzatilayotgan badandan qon silqib chiqishlar, trombotsitlarni ko'payishi, leykotsitlar soni ortishi evaziga to'xtaydi, - bu degani esa – yuqumli kasalliklar endi qo'rqinchli emas, degani. Eritrotsitlar sonining ortishi shu darajaga boribyetadiki, to'qimalarning kislorod bilan ta'minlanishi yaxshilanadi. Vrachlarning aniqlashlariga qaraganda, bemorlarning shaxsiy iliklari ishlay boshlagan, ko'chirib o'tkazilgan ilik to'qimalari esa ozaya boshlagan. Nurlanganlaridan so'ng, to'rt oy o'tgach, jabrlanuvchilar sog'liklar qoniqarli holatda Belgrad shahriga jo'natildi.

Mazkur hikoyaga shuni ham alohida ilova qilamizki, Rozanda Dangubish 1965 yilda qiz ko'radi. Jorj Mato amalga oshirgan ilik ko'chirib o'tkazish operatsiyasiga ko'p ilik jiddiy tadqiqotlar «izdosh» bo'ldi. Eng mayda qismlardan ishlab chiqilgan uslub hayvonlar ustida o'tkazilgan tajribalarda o'rganildi .

Qirollar kasalligi.

Bu kasallik nav nihol yoshlar hayotiga beshafqat chang solardi. Qandaydir noma'lum bo'lgan sabablarga ko'ra mazkur kasallik faqat erkaklarga qiron keltirardi. Bu baxtsizlik avlodlardan – avlodlarga «meros» bo'lib qolaverdi.

Xuddi shum taqdir soyasidek bu kasallik faqat «saralangan» oilalar tevaragida o'ralashib yurardi. Shuning uchun ham «saralangan» deyilardiki, bu kasallik bilan og'riganlarning aksariyati qadimiy aslzodalarga mansub edi. Shu bois ham bu kasallik qirollar kasalligi degan salobatli nom olgan edi. Kichkinagina tirnalish yoki kesib olish oqibatida organizmdan to'xtovsiz qon ketardi va ushbu kasallik bolaning o'limi bilan yakunlanardi. Ushbu kasallikka duchor

bo'lganlarning 100 nafaridan 20 nafari 18 yoshga zo'rg'a – zo'rg'a yetib kelardilar. Qolganlari hayotdan ko'z yumardilar. Hatto kichkinagina lat yeyish ham ichki qon ketishga olib kelardi. Kasallik gemofiliya nomi bilan mashxur bo'lib, uning kelib chiqishi sabablari batamom noma'lum edi. Amerikalik Artur Patek va Frank Teylorlar buyuk kashfiyot yaratgunlaricha, ya'ni 1937 yilgacha bo'lib keldi.

O'ttiz yasharli tabobat fanlari doktori Artur Patek Bostondagi yirik shifoxonalardan birida ishlar edi. Mazkur shifoxonaga bemorlar og'ir qon ketishi oqibatida tez –tez tashrif buyurib turishardi. Agar bemorga gemofiliya tashxisi qo'yilsa, uning qarindosh urug'larining davolash mumkinmi? degan savollarga vrachlar najotsiz qo'l silkib qo'yishardi.

Kunlardan bir kuni tul qolgan bir ayolning gemofiliya bilan og'rigan o'smir o'g'li Patekning ko'z oldida jon berdi. O'smirning o'limi, qarindosh urug'larining chekkan qayg'usi yosh vrachda klinikachi iqtidorini tadqiqotchilik iste'dodi bilan uyg'unlashtirib yuborgan vrach bo'lgani uchun ham o'sha paytlarda juda yaxshi jihozlangan Toridoy laboratoriyasida maslahatchi bo'lib ishlar edi. U gemofiliya kasalligining kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida tadqiqotga Boston shifoxonasining assistenti Franf Teylorni ham jalb etdi. Bu paytgacha qon ivib (qotib) qolishini ta'minlovchi 7 ta oqsil modda mavjud edi. Tadqiqotchilar gemofiliya bilan og'rigan bemorlar tomiriga ana shu oqsil moddalardan yuborib ko'rishdi, biroq bu muolaja foyda bermadi. Qonni quyultirishni ta'minlovchi biron – bir yangi faktor topish maqsadida Torndoy laboratoriyasida mavjud bo'lgan qudratli sentrafuga va oqsillarni elektrofarezlovchi moslamalardan foydalanishdi. Va nihoyat, bir necha yillik tinmay qilingan mehnatlari evaziga ular kashfiyot yaratdilar: probirkada sog'lom odam plazmasidan olingan bir necha tomchi modda oldilar. Olimlar bu moddani gemofiliya bilan og'rigan bemor tomiriga quyganlarida – uning qoni quyiladi. Tarkibiga ko'ra bu modda oqsil – globulin edi. Ixtirochilar uni gemofiliyaga qarshi globulin deb atadilar. Biroq, o'sha paytlarda bemor uchun kerakli miqdordagi globulinni donor qonidan olishning hech ham iloji yo'q edi.

Shunday qilib, gemofiliyaning kelib chiqishi sabablari aniqlandi. Endi esa bir oiladagi o'g'il bolalardan bittasi gemofiliya bilan kasallanadiyu ikkinchisi kasallanmadi, degan muammo ko'ndalang bo'lib turardi. Bu masalani hal etish uchun genetiklar ishga kirishdilar. Vrachlar uzoq zamonlardan beri gemofiliyani avloddan avlodga yuqadigan kasallik deb faraz qilib keladilar. Ular kasallik sababini oxirigacha o'rgandilar. Gap shundaki u yoki bu jinsga mansublik xromosomalar to'plamiga qarab belgilanadi gemofiliya gening tashuvchi xromosomalar keyingi avlodga, yangifaqat qizlarda meros bo'lib o'tarkan. Pradoksni qarang :meroshorning o'zi mutlaqo kasallanmas ekan... Gemofiliya genining tashuvchi xromosoma qaytadan tiklanib, sog'lomlashadi. Uning ho'jayini Konduktorlik vazifasini yoki gemofiliyani kuzatuvchisi vazifasini o'taydi.

Bunaqa ayollarning, deylik, hamma bolalari ham gemofiliya bilan og'rivermaydi. «Merosxo'rlik» qonuniga asosan oiladagi o'g'illarning faqat yarmisigina odatdagi sog'lomlikdan «chekingan» xromosomalarni meros qilib oladilar va qolganlari esa sog'lom bo'lib tug'iladilar.

Gemofiliya kasalligidan uch ispan infanti halok bo'lgan bo'lsa gannaver knyazlari Gegen Sollerlar ham shu kasallikdan aziyat chekishgan. Chunki ular bobokalonlaridan bo'lmish qirolicha Viktoriya vasiyatlariga amal qilgan holda «aslzodalar» avlodga qiz berib, oq suyaklar avlodidan kelin olishgan. Ular past tabaqadagi ahli jamoa bilan qarindoshchilik rishtalari bog'lanishini or deb bilishgan. Nikolay II ning o'g'li shahzoda Aleksey ham shu kasallikdan vafot etgan. Uning onasi Alisa esa kasallikni merosdan – merosga tashuvchi konduktorlik vazifasini o'tagan. Maxsus tayinlangan xizmatkor – murabbiy taxt vorisi Rosiskiytni tirnash va jarohatlanishdan ehtiyot qilib olib yurgan. Yevropa qirolliklari shjaralarining kasallik keltiruvchi xromosomalari avloddan – avlodga tashib yurishi 8 ta qirollik oilasida yorqin namoyon bo'ldi [18].

Agar inson qonidagi barcha eritrotsitlarni ketma-ket terib chiqilsa, Yer sharini ekvatori bo'ylab uch marta aylantirish mumkin bo'lgan lenta hosil bo'ladi.

Inson tanasida 100-160 milliard kapillyar mavjud. Agar uni bir chiziqqa terib chiqilsa u 60-80 ming kilometrni tashkil etadi. Bu esa Yer ekvatori uzunligining

ikki barobaridir. . Insonning yirik arteriyalari 20 atmosfera miqdordagi bosimga bardosh beradi.

Qadimiy Yunonistonda insonlar o'rtacha 29 yil, XVI asrda Yevropada 21, XVII asrda — 26, XVIII asrda 34, XX asr boshlarida — 50, XX asr o'rtalarida 70 ga yaqin XX asr oxirida esa 60 yil umr ko'rishgan.

Qattqlik bo'yicha tish emalini kvarsqa tenglash mumkin. Ma'lumki, eng o'tkir qilichning ham bu emalga urilganda dami qaytadi.

Bosh miyaning istalgan sohasida qon tomirning tiqilishi yoki yorilishi asab hujayralarining nobud bo'lishiga olib keladi. Asab hujayralari qayta tirilmaydi. Shu sababli, ularning vazifalarini qisman sog' qolgan hujayralar o'z zimmasiga oladi.

Agar inson eritrotsitlarini daqiqasiga 100 dondan sanab turilsa, ularning barchasini sanab bo'lish uchun 450 ming yil talab etiladi.

Bir kunda inson iligi 320 milliard eritrotsitlarni o'tkazadi.

Ilik, o't pufagi va limfa tugunlarida paydo bo'ladigan leykotsitlar bor-yo'g'i 4-5 yil yashaydi.

Qonda ba'zi bir moddalarning doimiyliigi kishini hayratlantiradi. Masalan, oqsil — 5-8%, qand — 0,07-0,12%, tuzlarning umumiy miqdori — 9,9%, bunda kaliy, natriy va kalsiy tuzlarining miqdori ma'lum bir aniqlikda bo'ladi.

Katta yoshli insonda qonning to'liq aynalishi 20-28 soniyada ro'y bersa, yosh bolada bu 15 soniya, o'smirda 18 soniyani tashkil etadi. Bir sutkada qon tana bo'ylab 1,5-2 ming marta aylanadi.

Yurak massasi tana massasining 1/200 qismiga teng, biroq yurakni oziqlantirish uchun barcha a'zolari oziqlantirishga ketadigan energetik resurslarning 1/20 qismi sarflanadi. Chunki yurak mushaklarida modda almashinuvi insonning istalgan boshqa a'zosiga nisbatan 10-20 barobar intensiv tarzda ro'y beradi.

Xar daqiqada miya tomirlari bo'ylab 3/4 litr qon oqib o'tadi, miya yarim sharlaridagi barcha qon tomirlarining umumiy uzunligi 560 kmni tashkil etadi.

Inson zardobi boshqa hazm qildiruvchi suyuqliklardan farqli o'laroq, fermentlarga ega emas.

Inson jigari unga teng massadagi mushakka nisbatan 10 barobar ko'proq kislorod iste'mol qiladi va ko'proq issiqlik chiqaradi.

Jigar orqali bir daqiqada 1,5 litr qon oqib o'tadi, sutkada esa 2000 litr.

Inson qon tomiri urmasa yashay oladimi? Yashay oladi. Buni Kreyg Lyuisni davolagan doktor isbotlagan. Bemorga hattoki kardiostimulyator ham yordam bermagan edi. Oqibatda bemorning yuragi o'rniga qonni uzluksiz oqim bo'ylab harakatlantirib turuvchi apparat o'rnatildi. Bemor yashashda davom etdi, ammo uning tomir urishi yo'qligi sababli EKG da to'g'ri chiziqni ko'rsatadi.

Inson soch tolasi qalinligi sovun ko'pigidan 5000 barobar qalin, kapillyar qon tomiridan esa 5 marta qalin, o'rgimchak to'ridan esa 20 barobar.

Bir bog'lam selderey yeyish uchun inson undan olinadigan energiyadan ko'ra ko'proq energiya sarflaydi.

Inson jilmayish uchun 40 ta mushagini ishga soladi, miltiq tepkisini bosish uchun atigi 4 ta.

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Qon-tiniq bo'lmagan qizil rangdagi sho'rtak ta'mli yopishqoq suyuqlik, bo'lib ikki qismdan: plazma va shaklli elementlar eritrositlar, leykositlar va trombositlardan iboratdir.

Qonning miqdori va tarkibi tinimsiz o'zgarib tursada, lekin har bir turga xos bo'lgan nisbatan doimiyliigi bilan ajralib turadi. Qonning miqdori, tuzilishi va shaklli elementlarning miqdori, plazmaning ximiyaviy tarkibi turli turdagi hayvonlarda bir xil emasekan.

Qonning miqdori uning gavda og'irligining o'rtacha 7 % ini tashkil etadi va 5-9 % gacha o'zgarib turadi, otlarda - 9,8 %, qoramollarda - 8,0 %, qo'ylarda - 8,2 % va cho'chqada - 4,6 %.

Normal sharoitda odamlarda tinchlik paytida qon ikki qismga bo'linadi. Urtacha 40-50 % umumiy qonning bir qismi tananing barcha qismidagi qon tomirlari bo'ylab harakatda bo'ladi va aylanib yuruvchi qon deb ataladi, qolgan qismi esa depolarda saqlanadi - depolarda saqlanib turuvchi qonlarni tashkil etadi.

Tana haroratining ko'tarilishi, jismoniy ish bajarish, nafasning qisishi, havo yetishmasligi, kuchli diqqatlanish - emosiya, adrenalini gormonini qonga kiritilishi depolarda saqlanuvchi qonning chiqarilishi hisobiga, aylanib yuruvchi qon miqdorining ortishini chaqiradi.

Depolarda saqlanuvchi qon taloq, jigar va teriosti kletchatkasi kapillyarlarida jamlangan bo'lib deyarli aylanib yuruvchi qon bilan qo'shilmaydi.

Hisoblashlarga ko'ra taloqda 16 %, jigarda 20 %, terida esa umumiy qonning 10 % saqlanadi.

Depolarda saqlanuvchi qonning ahamiyati shundan iboratki, qonning

depolarida saqlanishi tufayli aylanib yuruvchi qonning miqdori kamayadi, natijada organizm tinch paytida yurakka tushadigan yuklama kamayadi. Qon yo'qotish paytlarida va yuqoridagi holatlarda zarur bo'lib qolgan vaqtlarda reflektor ravishda depo qonlarini aylanib yuruvchi qonga chiqarilishi kuzatiladi, bu esa uning miqdorini oshishiga sabab bo'ladi.

Shuni hisobga olish zarurki, depolardagi qonlar mexanik sabablarga ko'ra va plazmadan to'qimalarga undagi suvning so'rilishi hisobiga aylanib yuruvchi qonga nisbatan shaklli elementlarning miqdori ko'p bo'ladi. Masalan, taloqdagi qon tarkibidagi eritrositlar soni aylanib yuruvchi qonga 3:2 nisbatda bo'ladi.

Shu sababli ham, depolarida saqlanuvchi qonning umumiy qon aylanish tizimiga tushishi faqatgina mutloq jihatdan ortishni chaqirmasdan,

balki nisbiy jihatdan ham qonda eritrositlar va gemoglobin miqdorini ham oshishini ta'min etadi.

Qisqa muddatga suyuqliklarm'ng organizmga tushishi umumiy qonning miqdorini oshiradi. Qaysiki ichaklardan suvni qonga o'tishi kuzatiladi. Organizmga suvni tushishi chegaralanganda, ayniqsa, qon yo'qotilganda qisqa muddatga umumiy qon miqdori kamayadi.

Aylanib yuruvchi shaklli elementlarga nisbatan qonning miqdorini juda tez kamayishi organizm uchun juda xavfli, chunki bu paytda qon bosimi pasayib ketadi.

Katta miqdordagi qonning sekin yo'qotilishi, kichik miqdordagi qonning tez yo'qolishidan ko'ra xavfsizdir. Sekin-asta yo'qotiladigan $\frac{2}{3}$ qism eritrositlar hayot uchun xavfsizdir. Barcha qonning $\frac{1}{3}$ - $\frac{1}{2}$ qismini arterial qon yo'qotilishi o'linga olib keladi.

Odamlar qonidagi oqsillarning umumiy miqdori qishda ko'payadi va yozda kamayadi. oqsillarning plazmadagi miqdori oziqlanish xarakteriga bog'liq holda kuzda ko'p va bahorda kam bo'ladi.

Voyaga yetgan odamlarda *plazma* oqsillarining umumiy miqdori oziqlanishga bog'liq boimagan holda kamayadi. Bu paytda albuminlarning nisbiy miqdori kamayadi va aksincha globulinlar esaortadi. Ayollarla esa globulinlarning

miqdori erkaklarga nisbatan bir muncha ortiq.

Globulinlar qonning himoya xususiyatini ta'min etadi. Globulinlar qatoriga kimvchi fibrinogen qonning ivishida ishtirok etuvchi muhim biologik ahamiyatga ega. U jigarda hosil bo'ladi.

Qon plazmasida moddalar almashinuvining oraliq mahsulotlari mavjud bo'lib, ularni barcha oqsillarni cho'kmaga cho'ktirgandan keyin filtratdan ajratib olish mumkin. Bularga mochevina, siydik kislotasi, aminokislotalar, kreatinin, ammiak va boshqalarni kiritish mumkin.

Bu moddalarda mavjud bo'lgan azot, qoldiq yoki oqsilsiz azot deb ataladi. Uning miqdori voyaga yetgan odamlarda 20-40 mg% yoki 100 sm qonga 20-48 mg. tashkil etadi.

Qon plazmasida yana glyukoza, sut kislota, yog', yog' kislotalari va yog'simon moddalar ham bo'ladi. Ertalab och paytida odamlar qoni plazmasida 0,1-0,12 % (100-120 mg %) glyukoza va 0,5-1,0 % ga yaqin yogiar va yog'simon moddalar saqlanadi. Sog'lom odamlar qonida xolesterinni maksimal miqdori qish va kuzda (200-250 mg %) minimal miqdori esa bahor va yozda (170-180 mg %) kuzatiladi.

Xolesterinning umumiy miqdori qonuniy ravishda 70 yoshgacha ortib borsa, so'ngra kamayadi.

Ovqat iste'mol qilinganidan keyin odamlar qoni plazmasidagi glyukozaning miqdori 0,2 % gacha ortishi mumkin, buni alimentar giperglikemiya deb yuritiladi. Plazmada glyukozaning 0,05 % gacha pasayishi esa gipoglikemiya deb ataladi. Qon plazmasida glyukozaning 0,2 % dan ortib ketishi va 0,05 % dan pastga tushib ketishi organizm funksiyalarini og'ir buzilishiga va uning o'limiga olib keladi.

Tinchlik paytida qondagi sut kislotasining miqdori 10-30 mg % ga teng. Kuchli jismoniy ish bajarilgan paytda uning miqdori bir necha bor ortadi, bundan tashqari, fosfor kislotasi va uning almashinuv mahsulotlari oqsillar va uglevodlar bilan birikmalarining miqdori ham ortadi.

Qonda turli fermentlar ham saqlanadi, ularning ayrimlari plazmada bo'lsa, boshqalari shaklli elementlarda saqlanadi. Plazmada amilaza-uglevodlarni parchalovchi, lipaza-yog'larni parchalovchi va oksidlanish va tiklanish

jarayonlarida ishtirok etuvchi oksidaza va peroksidaza fermentlari saqlanadi. Shunday ekan qon organizmni tirikligini uning hayotchanligini xam belgilovchi yagona mezondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov “Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish eng oliy saodatdir” T.: “O’zbekiston”, 2015y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent.- 1998 y.
3. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas – kuch” Toshkent.- Ma'naviyat nashryoti,- 2008y.
4. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent.- O'zbekiston nashryoti,- 2011y.
5. I.A.Karimov “Sog’lom ona va bola davlat dasturi” – Toshkent 2016
6. A.G'.Ahmedov va boshqalar “Odam anatomiyasi” Toshkent.- “Moliya-iqtisod” nashryoti,- 2007y.
7. A.Faller, M.SHyunke «Anatomiya i fiziologiya cheloveka». Moskva.- BINOM,- 2010g.
8. A.S.Solodkov, Ye.B.Sologub «Fiziologiya cheloveka» Moskva.- «Sovetskiy sport»,- 2010g.
9. B.A.Sodiqov, L.S.Qo'chqarova va boshqalar “Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigienasi” Toshkent.- 2005y.
10. K.T.Almatov, A.T.Mamatxonov, SH.L.Xolmurodov L.S.Klemesheva. “Ulg'ayish fiziologiyasi”. Toshkent.- 2004 y.
11. K.T.Almatov, SH.I.Allamurodova va boshqalar “Odam va hayvon fiziologiyasi” Toshkent. Universitet nashryoti,- 2004y.

12. L.S.Klemesheva, M.S.Ergashev. “Yoshga oid fiziologiya”. Toshkent.- 1991y.
13. Maturazova Elmira Matiyazovna «Xarakteristika antropometricheskix pokazateley, sistemi krovi i krovobrasheniya i detey v usloviyax yujnogo priaralya» Aftorefarat.- Toshkent.- 2008.
14. O.T.Alyaviya va boshqalar “Normal fiziologiya” Toshkent.- “Yangi asr avlodi” nashryoti,- 2007y.
15. Ye.B.Babskiy, I.A.Zubkov va boshqalar. “Odam fiziologiyasi” Toshkent, 1972.
16. U.Z.Qodirov “Odam fiziologiyasi”. Toshkent.- Abu Ali Ibn Sino nashryoti,- 1996 y.
17. Human anatomy physiology Nega Assefa Alemaya University Yosief Tsige Jimma University 2003
18. I.A.Kassirskiy. “Qonningsirasrori” “Meditsina” nashriyotiToshkent 1972-yil.
19. F.N.Bahodirov va boshqalar “Odam anatomiyasi” Toshkent.- “O'zbekiston” nashryoti,- 2006y.
20. «Fiziologiya cheloveka» – pod redaktsiey R.SHmidta i G.Tevsa v 3-x tomax. Moskva.- «Mir»,- 2010
21. SH.T.Otaboev, SH T Xoliqova, Y.N,Sattarova, X.Mo'minov. “Salomatlik asoslari” Toshkent.- 2008 yil
22. SH.Qurbonov A Qurbonov “Jismoniy rivojlanishning fiziologik asoslari” Toshkent.- 2003 y.
23. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent.- Davlat ilmiy nashryoti,- 2005 yil
24. Q.S.Sodiqov “O'quvchilar fiziologiyasi va gigienasi” 1992- yil
25. www.Ziyo.Net.

